

“TASDIQLAYMAN”
Muxammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari
universiteti rektori v.b.

_____ **B.Sh.Maxkamov**



2021 yil « 15 » _____ 4/10/21

Muxammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari
universitetining Korrupsiyaga qarshi kurashish
“Komplaens nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi to‘g‘risida
NIZOM

Toshkent – 2021 yil.

**Muxammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari
universitetining Korrupsiyaga qarshi kurashish
“Komplaens nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi to‘g‘risida
NIZOM**

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens nazorat” tizimini boshqarish bo‘limining maqomi, asosiy vazifalari, funksiyalari, xuquqlari javobgarligi, faoliyatini tashkil etish, xodimlarning funksional vazifalari xamda javobgarligini belgilaydi.

2. Bo‘lim oliy ta‘lim muassasasining tarkibiy bo‘linmasi xisoblanadi.

3. Bo‘limning faoliyati oliy ta‘lim muassasasida “Komplaens nazorat” tizimini boshqarish, shuningdek korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini olib borishga yo‘naltirilgan bo‘lib, o‘z vakolatlari doirasida bevosita oliy ta‘lim muassasasi rektoriga bo‘ysunadi xamda Oliy va O‘rta maxsus ta‘lim vazirligi Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish Bo‘limiga xisobot beradi.

4. Bo‘lim o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining qarorlari va farmoyishlariga, vazirlik buyruqlariga va Xay‘ati qarorlariga, mazkur Nizom, Muxammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining ichki buyruqlari, shuningdek boshqa qonun xujjatlariga amal qiladi.

5. Bo‘lim uz faoliyatini Muxammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining boshqa bo‘linmalari bilan o‘zaro xamkorlikda amalga oshiradi.

II. Bo‘limning vazifalari va funksiyalari

6. Quyidagilar Bo‘limning asosiy vazifalari xisoblanadi:

Oliy ta‘lim muassasasida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni profilaktika qilish va ularga qarshi kurashish;

Oliy ta‘lim tizimida “Korrupsiyasiz soxa” loyixasini oliy ta‘lim muassasasi miqyosida amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar ijrosini ta‘minlash;

Oliy ta‘lim muassasasida korrupsiyaga qarshi kurash “Komplaens nazorat” tizimini joriy etish va uni amalga oshirish;

Oliy ta‘lim muassasasida korrupsiyaga oid xavf-xatarlar yuqori bo‘lgan yo‘nalishlar hamda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini aniqlash;

Oliy ta‘lim muassasasida korrupsiya ko‘rinishlari namoyon bo‘lishiga olib keladigan tizimli muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha tegishli takliflarni kiritgan xolda axborot berib borish;

Oliy ta‘lim muassasasida korrupsiyaga oid xuquqbuzarliklarning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish xamda korrupsiyaga qarshi kurashish choralarining samaradorligini oshirishga qaratilgan dasturlar ijrosini ta‘minlash;

Oliy ta'lim muassasasida korrupsiyaga qarshi kurashishga yo'naltirilgan jamoatchilik nazoratini muvofiqlashtirib borish, shuningdek zamonaviy usullar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida korrupsiyaga qarshi monitoring olib borish;

Muxammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi akademik litseyning korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishidagi faoliyatini muvofiqlashtirish.

7. Bo'lim uziga yuklangan vazifalarni bajarish uchun quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

Oliy ta'lim muassasasida korrupsiyaga qarshi kurashishga oid qonunlar va qonunosti xujjatlar, shuningdek, Vazirlik Xay'ati qarorlari va buyruqlariga rioya etilishi ustidan nazorat olib boradi;

Korrupsiyaga oid xuquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar va ish rejalarini ishlab chiqadi, ularning to'liq, sifatli va o'z vaqtida ijro etilishini ta'minlaydi, belgilangan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi axvolini o'rganadi, natijalari bo'yicha ma'lumotlar tayyorlaydi;

Oliy ta'lim muassasasida "Korrupsiyasiz soxa" loyixasini amalga oshiradi;

Oliy ta'lim muassasasida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan ichki xujjatlar loyixalarini ishlab chiqadi va tasdiqlash uchun rektorga kiritadi;

Oliy ta'lim muassasasining ichki xujjatlarida aniqlangan korrupsiyaviy normalarni bartaraf qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

Oliy ta'lim muassasasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baxolaydi va ularni kamaytirish yuzasidan chora-tadbirlar rejalarini ishlab chiqadi;

oliy ta'lim muassasasining professor-o'qituvchilari, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlarining hatti-harakatlaridagi korrupsiyaviy xavf xatarlar va huquqbuzarliklar xaqida kelib tushadigan murojaatlar va anonim xabarlarini ko'rib chiqadi hamda o'rnatilgan tartibda choralar ko'radi;

Oliy ta'lim muassasasida korrupsiya faktlariga doir xizmat tekshiruvlarini reestrini yuritib boradi;

Davlat xaridlarini amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuvini tashkil qilishda va kontragentlarning ishonchligini tekshirishda ishtirok etadi;

Oliy ta'lim muassasasi xodimlari o'rtasida manfaatlar to'qnashuvi monitoringini yuritadi va tegishli takliflar kiritadi;

Oliy ta'lim muassasasining professor-o'qituvchilari, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi, o'quv-yordamchi xodimlari o'rtasida muntazam ravishda profilaktik suxbatlar tashkil etib boradi; oliy ta'lim muassasasi faoliyatida korrupsiyaviy xolatlarni aniqlash maqsadida professor-o'qituvchilar, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi, o'quv-yordamchi xodimlar, talabalar (magistrantlar, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar) so'rovlar, ijtimoiy va boshqa tadqiqotlar asosida korrupsiyaga qarshi kurashish targ'iboti bo'yicha chora-tadbirlar natijalari va ta'sirini muntazam ravishda baxolab boradi xamda keyingi chora-tadbirlarni belgilashda baxolash natijalaridan foydalanadi;

professor-o'qituvchilar, talaba-yoshlar o'rtasida korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan konferentsiyalar, uchrashuvlar, seminarlar, tanlovlar tashkil etadi;

oliy ta'lim muassasasida korrupsiyaga oid xuquqbuzarliklar sodir etilishining shart-sharoitlari va sabablarini o'rganadi, shuningdek ularni bartaraf etish bo'yicha takliflarni ishlab chiqadi;

oliy ta'lim muassasasining rasmiy veb-saytida "Korrupsiyaga qarshi kurashish" bo'limidagi ma'lumotlarni muntazam ravishda yangilab borilishini ta'minlaydi;

xar chorakda va zaruratga ko'ra korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar xamda oliy ta'lim muassasasidagi korrupsiyaviy vaziyat xakida rektorga xamda Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligining Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limiga hisobot beradi;

Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligining Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi xamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi boshqa davlat organlari va tashkilotlari, ota-onalar bilan korrupsiyaga qarshi kurashish soxasida samarali xamkorlikni yo'lga qo'yadi;

oliy ta'lim muassasasi xuzuridagi akademik litseyning korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishidagi faoliyati ustidan nazorat o'rnatadi;

oliy ta'lim muassasasida korrupsiyaga qarshi amalga oshirilgan ishlar monitoringini yuritadi, taxliliiy materiallarni raxbariyatga xamda vazirlikka kiritib boradi.

III. Bo'limning xuquqlari va javobgarligi:

8. Bo'lim o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni amalga oshirish uchun quyidagi huquqlarga ega:

oliy ta'lim muassasasi va uning xuzuridagi akademik litseyga ishga qabul qilish, xodimlarni attestatsiyadan o'tkazish, talaba (magistrant, doktorant, mustaqil izlanuvchi)larni imtixonlari (yakuniy, oralik, malakaviy, yakuniy davlat attestatsiyasi, diplom ximoyasi) jarayonlarini bevosita yoki videotranslyatsiya orqali kuzatib borish, mazkur jarayonlarda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash;

oliy ta'lim muassasasining xamda uning huzuridagi akademik litseyning professor-o'qituvchilari, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlaridan ularning vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan taxliliiy materiallar, xulosalar, birlamchi va boshqa taqqoslovchi xujjatlarni, statistik va boshqa ma'lumotlarni so'rash, talab qilish va olish;

xizmat majburiyatlarini bajarish doirasida oliy ta'lim muassasasi xodimlaridan zarur yordam so'rash va olish, zarur xollarda ishchi guruxlar tashkil etish;

oliy ta'lim muassasasining Kengashi majlisi yig'ilishlarida ishtirok etish;

oliy ta'lim muassasasi rektoriga Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga oid takliflar kiritish;

vakolati doirasida tekshiruvlar o'tkazish, xujjatlarni talab qilish, oliy ta'lim muassasasining professor-o'qituvchilari, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlari, talabalar (magistrantlar, doktorantlar, mustakil

izlanuvchilar)dan yozma tushuntirishlar olish, jinoyat alomatlari aniqlangan xollarda tegishli xuquqni muxofaza qiluvchi organlarga xabar berish;

o'z faoliyati doirasida oliy ta'lim muassasasining tarkibiy bo'linmalariga ko'rsatmalar va tavsiyalar berish;

Bo'lim qonun xujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga xam ega bo'lishi mumkin.

9. Bo'lim:

o'ziga yuklangan vazifalarning tegishli darajada va samarali bajarilishi;

o'ziga yuklangan funksiyalarning bajarilishi xamda ijro intizomini ta'minlash talablarini bajarilishi;

oliy ta'lim muassasasi raxbariyatiga axborot berish uchun materiallar va xujjatlarning belgilangan muddatlarda bajarilishini ta'minlanishi;

oliy ta'lim muassasasida komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyati bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar xolati;

jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarining o'z vaqtida ko'rib chiqilishi xamda qonunchilik xujjatlari asosida xal etilishi uchun javob beradi.

IV. Bo'lim tuzilmasi

10. Bo'lim tuzilmasi Bo'lim boshlig'i va bosh mutaxassisni o'z ichiga oladi.

11. Bo'limga boshliq raxbarlik qiladi. Bo'lim faoliyati mustaqilligini ta'minlash maqsadida Bo'lim boshlig'i o'z faoliyatida bevosita oliy ta'lim muassasasi rektoriga va Bo'lim bosh mutaxassisi Bo'lim boshlig'iga bo'ysunadi.

12. Bo'lim boshlig'i oliy ta'lim muassasasining bo'ysunuvidagi vazirlik va idoralar bilan kelishilgan xolda oliy ta'lim muassasasi rektorining buyrug'iga muvofiq belgilangan tartibda lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

13. Bo'limning bosh mutaxassisi oliy ta'lim muassasasi rektorining buyrug'i bilan belgilangan tartibda lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

V. Bo'lim boshlig'i va bosh mutaxassisining asosiy funksional vazifalari

14. Bo'lim boshlig'ining asosiy funksional vazifalari quyidagilardan iborat:

Bo'limga umumiy raxbarlik qiladi, Bo'lim ishini tashkil etadi, Bo'limga yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi xamda ijro intizomi bo'yicha to'liq javob beradi;

oliy ta'lim muassasasida korrupsiyaga qarshi kurashishga oid qonunlar, qonunosti xujjatlariga rioya etilishi ustidan nazorat olib boradi;

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar va ish rejalarini ishlab chiqadi, ularning to'liq, sifatli va o'z vaqtida ijro etilishini ta'minlaydi;

oliy ta'lim muassasasida "Korrupsiyasiz soxa" loyixasini amalga oshirishga qaratilgan ishlarni tashkil etadi;

ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish asosida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha taxliliy materiallar tayyorlaydi;

fuqarolik jamiyati institutlari, xuquqni muxofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar, ota-onalar bilan korrupsiyaga qarshi kurashish soxasida samarali xamkorlikni yo'lga qo'yadi;

Bo'lim faoliyatiga taalluqli masalalar bo'yicha xujjatlarni ishlab chiqadi, shuningdek kiritilgan xujjatlar loyixalari ko'rib chiqilishini ta'minlaydi va takliflar tayyorlaydi;

oliy ta'lim muassasasi Kengashi tarkibiga kiritiladi xamda majlislarda ishtirok etadi;

Bo'lim ishlarini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlarni ishlab chiqadi va amalga oshirilishini ta'minlaydi;

Bo'lim faoliyati bilan bog'liq jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqadi xamda ijro intizomiga to'liq amal qiladi, qonun xujjatlariga muvofiq vakolati doirasida boshqa funksional vazifalarni amalga oshiradi.

15. Bosh mutaxassisning asosiy funksional vazifalari quyidagilardan iborat:

oliy ta'lim muassasalari pedagog xodimlari, talaba yoshlar xamda jismoniy va yuridik shaxslar bilan uchrashuvlar tashkil etib, ularni qiynayotgan tizimli muammolarni o'rganadi, oliy ta'lim muassasasida korrupsiyaga oid xavf-xatarlar yuqori bo'lgan yo'nalishlar xamda korrupsiyaga oid xukukbuzarliklar sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini aniqlaydi;

korrupsiyaga qarshi kurashish borasida o'tkaziladigan o'rganishlar, tekshirishlar, taxlillar hamda ishlab chiqiladigan takliflarda mutaxassislarni jalb etishda ishtirok etadi;

korrupsiyaga qarshi o'quv-uslubiy va metodik jixatdan, jumladan audio-video roliklar, foto xamda buklet va broshyura kabi materiallarni yaratishni yo'lga qo'yadi;

oliy ta'lim muassasalarida korrupsiyaning xolati, tendentsiyalari va sabablari xamda korrupsiyaga qarshi choralar ko'rishning samaradorligi yuzasidan sotsiologik, ilmiy va boshqa so'rovlarni tashkil etadi;

Bo'lim boshlig'i bo'lmaganda, bosh mutaxassis faoliyatni muvofiqlashtirib boradi;

qonunchilik xujjatlariga muvofiq vakolati doirasida boshqa funksional vazifalarni amalga oshiradi.

VI. Bo'lim faoliyatini tashkil etish


16. Bo'lim o'z faoliyatida soxaga doir qonun xujjatlari, tegishli vazirlik va idoralar buyruqlari, Xay'at qarorlari, oliy ta'lim muassasasi Kengashi qarorlari, buyruqlari, mazkur Nizom va Bo'limning ish rejasi asosida amalga oshiradi.


17. Oliy ta'lim muassasasining Kengash qarorlari, rektor buyruqlari va tender xujjatlari Bo'lim bilan majburiy tartibda kelishiladi.

18. Bo'limning ish rejasi oliy ta'lim muassasasi ish rejasi tarkibiy qismi xisoblanadi xamda oliy ta'lim muassasasi rektori tomonidan tasdiqlanadi.

VII. Yakuniy qoida

19. Bo'lim faoliyatini qayta tashkil etish va tugatish qonun xujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.


M.A. Umurzoqov


T.A. Tojibayev